

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2025-yil 26-noyabr chorshanba №47(9580)

ADABIYOT

**O'zbek adabiyotida
muvashshahchilik
an'anasi**

2-4 -betlar

MAJLISIY

7-10 -betlar

**“G'arbiy frontda
o'zgarish yo'q” asari
ustida ishlash**

6-bet

**O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?**



Aksariyat ustozlar o'z haq-huquqimizni bilmaganimiz uchun qiy-nalib, nohaqliklar girdobida qolamiz. Men esa doimo haqiqatni gapirganim uchun rah-barlar zambaragiga nishon bo'lib turaman. Nega boshqalar bunday emas, biz nega qo'rqqmiz? Hammadek yashayverganimiz uchun o'sish yo'q, kim haqiqatni gapirsa o'shani kovlaymiz, eh...

Hilola MAMAJONOVA

Bolalarga tozalikni, atrof-muhitni asrash-ni amalda o'rgatish kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bunga alohida e'tibor qaratish lozim. Bola yerga tashlagan konfet qog'ozini o'zi terib olsin. O'quvchi maktabda parta ostiga tashlaganini o'zi yig'sin. Devordagi oyog'i izini o'zi artsin. Shundagina biror natijaga erishamiz.

Dilfuza SUVONOVA

Teran tomirlar

Muvashshah arabcha “vashshah” – “kamar”, “belbog‘ich” so‘zidan olingan bo‘lib, ma‘nosi “bo‘yni bog‘langan” demakdir. Tavshih(arabcha – “bezamoq”, “ziynatlamog‘”) lafziy san‘ati asosida yaratiladigan muvashshah she‘rning har bir misra, bayt yoxud bandining(ba‘zan taqte‘lar chegarasidagi) boshlanish harflaridan biror narsa yoki shaxsning nomi kelib chiqadi. Muvashshah qit‘a, ruboiy, muammo, g‘azal, musammat, mustazod kabi turli janr shakllarida yaratilgan.

Bu janr to‘g‘risida Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, To‘xta Boboyev, Anvar Hojiahmedov, Qo‘ldosh Pardayev singari olimlarning tadqiqotlari ahamiyatli. Jumladan, akademik Aziz Qayumov quyidagicha fikr bildirgan: “Muvashshah g‘azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko‘proq Sharq adabiyotiga xos an‘anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi”. Haqiqatan ham, muvashshah shoirdan katta mahorat talab qiladi, chunki keltirib chiqarish ko‘zda tutilgan ism misra yoki baytni ma‘lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa misra yoki baytni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so‘z bilan emas, chiqariladigan ismga mos so‘z bilan boshlashni taqozo qiladi. Shunday ekan, muvashshah yuksak mahorat va did bilan yaratilmasa, she‘rning badiiy saviyasi tushib ketishi mumkin.

Forsiy adabiyotda muvashshahga oid ilk ma‘lumotlar Umar Roduyoniyning(XI asr) “Tarjumon ul-balog‘a” asarida berilgan. Muallif bu janrning lug‘aviy ma‘nosini izohlab “...bunda shoir qasida baytlaridagi avvalgi harflarni olib, she‘rning asosini paydo qilur. Ajratilgan harflar birlashtirilsa, ma‘lum bir so‘z hosil bo‘ladi...” deya ma‘lumot beradi va fikrini dalillash uchun shoir Muvaqqariy qalamiga mansub forsiyda bitilgan baytlar toq misralarining birinchi harflaridan “Daryo” so‘zi kelib chiqadigan muvashshahni misol qilib keltiradi.

XV asr Hirot adabiy muhitida katta-kichik qasidarlarni muvashshah shaklida yaratish an‘anasi mavjud edi. Bu davrda muvashshah misralari ichida qizil siyoh bilan ajratib yozilgan so‘zlar jamlanganda bir yoki bir necha bayt she‘r paydo bo‘ladigan murakkab turini yaratish urf bo‘lgan. Mavlono Kotibiy, mavlono Ali Sheroziy, Xoja Salmon Savojiy kabi Hirot adabiy muhitining yetakchi shoirlari yaratgan qasidalar shunday shaklda yozilgani manbalardan ma‘lum. Ayniqsa, Ahliy Sheroziyning “Kulliyoti Ahliy Sheroziy” muvashshah-qasidayi masnu’si va Xoja Salmon

O‘ZBEK ADABIYOTIDA

Savojiyning “Qasidayi Masnu” nomli o‘ta murakkab, bir necha bahr, turli she‘riy san‘atlar qo‘llanilgan muvashshah tariqida yozilgan asarlari shuhrat qozongan.

O‘zbek adabiyoti tarixida murakkab va nozik she‘rlarni yaratish an‘anasi XV asrda mavjud bo‘lgan. Bunga turkiy adabiyotning yetuk olimi Shayx Ahmad Taroziyning turkiy tilda bitilgan “Funun ul-balog‘a” asari yorqin misol bo‘ladi. Olim asarda muvashshahni maxsus san‘at sifatida tilga oladi: “...she‘rning avvalgi harflarini terib olsalar yo o‘rtadagi harflarini olib jam qilsalar... (ism) bo‘lur. She‘rning bir misrasi harflarida ham ism muzayyan bo‘lishi mumkin” deb yozadi va “Mirak” ismiga bitilgan muvashshahni namuna sifatida keltiradi:

Mehringni tutar jon ichinda ko‘nglum,
Andog‘ki javohir erur ul kon arosinda.
Yuzung g‘amidin har kecha qon yig‘lamag‘imdin
To subh uzarmen, sanam, qon arosinda.
Ranjur bo‘lub kelmadi mushk o‘zga Xo‘tandin.
Zulfung sifatidin yozg‘oli devon arosinda.
Gar tekso o‘qung xasta yurakinga, – kuyormen,
Kuygan Mirak – o‘q bu dili biryon arosinda.

Muvashshahning olim aytganidek, agar “she‘rning bir misrasi harflarida ism muzayyan bo‘lishi mumkin bo‘lgan” turi mavjud bo‘lsa, buni Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism berilishida uchratish mumkin:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi:
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab.

Buni garchi “Funun ul-balog‘a”dagi ma‘lumotga tayanib muvashshah deb baholasak-da, biroq bu Sharq poetikasida hurufi dalolat deb nomlanadigan harflarga mazmun bag‘ishlash san‘ati ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bunda shoir “firoq”, “rashk”, “hajr”, “oh”, “dard” (arab yozuvida qisqa “a” harfi ifoda etilmaydi) so‘zlarining birinchi harflaridan “Farhod” ismini hosil qiladi va mazkur harflarda uning qismatini aks ettiradi. Shuningdek, she‘riyat ilmiga oid biror manbada bu she‘riy san‘at asosida muvashshah yaratish mumkinligi haqida ma‘lumot uchramaydi. Bizningcha, “she‘rning bir misrasi harflarida” deyilganda misralarning birinchi harflari nazarda tutilgan bo‘lsa kerak, chunki asarda “Munung bir misraning harflarini olsalar, “Muhammad” bo‘lur” deya namuna sifatida keltirgan muvashshahi odatdagi muvashshah shaklida:

Ma‘shuqa dilam ba tiri
anduh naxust,
Hayron shudam-u
kasam namegirad dast,
Miskin dili man ba poyi
mehnat shuda,
Dasti g‘ami do‘st pushti
man xirad shikast.

Shuningdek, ba‘zi manbalarda muvashshah aslida muammo zaminida paydo bo‘lgan, degan fikrlar ham mavjud. Aniqlik kiritish maqsadida Navoiyning “Mufradot” asari ko‘zdan kechirilsa, unda muammo amallari uch qismga ajratilgan va birinchi qism – a‘moli tahsiliyning in-tiqod(saralash) degan turiga ko‘ra so‘zning ba‘zi harflarini olish orqali muammo

hosil qilinishi aytiladi va “Odam” ismiga bitilgan muammo misol qilib keltiriladi:

Dili moro chu xoh-u boz justash
Z – oh-u dard-u mehnat cho‘naxistash.
(Ma‘nosi:
Dilimizni yana axtarmoqchi bo‘lsang,
Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir.)

Bu muammoni yechish uchun “oh”, “dard”, “mehnat” so‘zlarining bosh harflari olinsa, “Odam” ismi kelib chiqadi. Shuningdek, asarda “Malik” ismi kelib chiqadigan yana bir muammo keltirilgan. Navoiy muammoning bu turini “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism qo‘yish bobida ham qo‘llagan:

Jamolidin ko‘rungach farri shohi,
Bu fardin yorudi mah to bamohi.
Qo‘yub yuz himmat-u iqbol-u davlat,
Hamul far soyasidin topti ziynat.

Bunda “farri shohi”ning soyasiga(davomiga) himmat, iqbol va davlat so‘zlarining yuzi, ya‘ni bosh harflari qo‘shilsa, Farhod ismi kelib chiqadi.

Shoira Uvaysiyning “Jahon” ismi yashiringan quyidagi muammosi(manbalarda muvashshahi muammo deb ham yuritiladi) ham xuddi shu usulda yaratilgan:

Jim-u, ho-yu, alifi munkim darding yuki birla
Dilida nuqtasi, bag‘rida dog‘i loyiqi xunman.

Baytning birinchi misrasidagi jim, alif, ho, nun jahon bo‘lsa, ikkinchi misrasidagi “Dilida nuqtasi bag‘rimda dog‘i” so‘zlari “n” harfini, mazmun e‘tibori bilan yurak dog‘i, ko‘ngil g‘ussalarini ifodalab kelgan. Bu muammoda jim, alif, ho, nun harflari kitobat san‘ati tarzida ham mahorat bilan qo‘llanilgan.

Xullas, muvashshah va muammoda ko‘pincha ismni berkitish hamda berkitilgan ismni topish usullarining berilishi jihatidan o‘xshashlik kuzatilsa-da, barcha muvashshahlarda ham ism yashirilganiga maxsus ishoralar berilmaydi. Shuningdek, shakl va mazmun jihatidan ham farqlanishiga ko‘ra ular alohida she‘rlar hisoblanadi.

Muvashshah haqida to‘liq ma‘lumot XV asrda yashab ijod etgan shoir va olim Atoulloh Husayniyning forsiyda bitilgan “Badoyi’ us-sanoyi” asarida uchraydi. Olim bu xususida quyidagilarni yozadi: “Tavshih ajam shuarosi nazdida andin iboratturkim, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o‘rtasida bir necha harf yoki bir necha so‘z keltirurkim, ul harf yoki so‘zlar jam‘ qilinsa, bir ism yo bir laqab yo bir misra yo bir bayt bo‘lur yoki anga o‘xshash bir nima hosil bo‘lur va bu san‘atni o‘z ichiga olg‘an she‘rni muvashshah derlar...”. Olim bunga misol qilib Navoiyga bag‘ishlangan “Alisher” ismi bilan bezalgan muvashshah-qit‘asini keltiradi:

Izzat-u davlat, ilohiy, bod bo fath-u zafar,
Shahriyor-i mulk-i donishro hamesha beshumor!

(Ilohim, ilm mulkining shahriyoriga hamisha hisob-siz fath-u zafar bilan izzat-u davlat kelsin.)

Lutf kun dar zill-i shah, yo rab, bidorash to magar
Yobad oromish ba izzu adl-i ehson ro‘zgor.

(Yo rab, lutf qil, uni shoh soyasida saqla, toki ularning qudrat-u adlidan zamona tinch bo‘lsin!)

Yo rab, ehson kun ba fazilat davlat-i uqbo, ki o‘
Rasm-i ehson kard dar dunyo ba davlat oshkor.

(Yo rab, fazling bilan unga oxirat davlatini ehson qil, chunki u davlatga bu dunyoda ezgulik rasmini bunyod qildi). Mazkur qit‘aning(eski o‘zbek yozuvida bitilganini e‘tiborga olgan holda) birinchi misrasi



MUVASHSHAHCHILIK AN'ANASI

boshidagi harflar jam' qilinsa, Ali hosil bo'lur, ikkinchi misraning oldidagi harflar jam' qilinsa, sher hosil bo'lur. Birinchi misraning hashvidagi so'zlar jam' qilinsa, quyidagi misra hosil bo'lur:

*Ilohiy bidorash ba fazilat.
(Ilohiy uni fazlingda tut).*

Ikkinchi misraning hashvidagi so'zlar jam' qilinsa, quyidagi ikkinchi misra hosil bo'lur:

*Hamesha ba izzu ba davlat
(Hamisha qudrat-u davlatda.)*

Agar so'zni misra va baytlarning tartibi bila jam' qilsalar, ushbu bayt hosil bo'lur:

*Ilohiy hamesha bidorash
Ba izzu ba fazilat ba davlat.*

*(Ilohiy, hamisha tut ani
Qudrat-u fazlingda, davlatda.)*

Qit'a mazmuni quyidagicha anglashiladi: "Ilohim ilm mulkining shahriyoriga hamisha hisobsiz fath-u zafar bilan izzat-u davlat kelsin! Yo rab, lutf qil, uni shoh soyasida saqla, toki ularning qudrat-u adldan zamona tinch bo'lsin! Yo rab, fazling bilan unga oxirat davlatini ehson qil, chunki u davlatga bu dunyoda ezgulik rasmini bunyod qildi".

Olim tavshih san'ati borasidagi mulohazalarini davom ettirib, uning qasidada qit'a shaklida qo'llanishini ta'kidlaydi va bu san'atni o'z ichiga olgan eng yaxshi *qasida* – *qasida-yi masnu'* (o'ziga xos bezaklarga ega bo'lgan, san'at darajasidagi)ning baytlari boshidagi harflardan latif bir qit'a chiqishini aytadi va yozadi: "birinchi misralar hashvidagi harflardin alifitin xoliy(alif harfi ishlatilmagan) ikkinchi bir qit'a kelib chiqar va ikkinchi misralar hashvidin o'run olgan harflardin nuqtasiz(nuqtali harflar ishlatilmagan) o'zga bir qit'a chiqar, dag'i o'zga rangda yozilgan abyotta berilgan alfoz-u huruftin abyoti masnu'a chiqar".

Shuningdek, muallif Rashiddin Vatvot va Shamsiddin Qays Roziy kabi olimlarning tavshih san'ati borasidagi fikrlarini keltirib, bu san'at haqida atroflicha ma'lumot beradi. Atoullah Husayniyning mazkur fikrlariga ko'ra tavshih lafziy san'ati asosida yaratilgan she'rning muvashshah deyilishi ma'lum bo'ladi. O'zbek adabiyotshunosligida ham A.Hojiahmedov va D.Quronovlarning bu janr haqidagi ma'lumotlari Atoullah Husayniy ma'lumotlari bilan o'xshash bo'lsa-da, negadir A.Hojiahmedov tavshihni *ma'naviy san'at* deb hisoblaydi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy san'atlarni nutqning ko'proq qaysi jihatiga bezak berishi jihatidan lafziy, ma'naviy hamda lafziy-u ma'naviy san'atlar ko'rinishida tasniflash an'anasishakllangan. Nutqning ma'no tomoni bilan bog'liq bo'lib, uning ma'no go'zalligini ta'minlashga xizmat qiluvchi she'riy san'atlar ma'naviy san'atlar, she'rning ko'proq shakl tomoniga e'tibor qaratgan holda uning uslubiga bezak beruvchi san'atlar lafziy san'atlar, ham shaklga, ham ma'noga aloqador bo'lgan san'atlar esa *lafziy-u ma'naviy* yoki *mushtarak san'atlar* deb yuritiladi. Tavshih san'ati asosida yaratilgan she'rda ham ma'no jihatini unutmagan holda ko'proq shakl tomoniga bezak beriladi. Shunga ko'ra "Tavshih lug'atta vishoh, ya'ni bo'yunbog'ni birovning bo'ynig'a ilmaktur. She'rg'a harf yoki so'zlarni kiritmak anga o'xshagan uchun bu ma'noda anga tavshih deb nom qo'yupturlar" deb ta'kidlab, shakl ustunligini e'tiborga olgan va tavshihni lafziy san'atlar qatoriga qo'shgan Atoullah Husayniyning yondashuvi asosli, nazarimizda.

Adabiyotshunoslikda muvashshahga alohida she'riy janr sifatida ham, badiiy san'at sifatida ham qarash mavjud. Masalan, adabiyotshunos T.Boyoyev muvashshahga ma'naviy san'atlardan biri, ayni chog'da

poetik janr, deb ta'rif beradi. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinovlarning "O'zbek klassik she'riyati janrlari" kitobida ham muvashshah adabiy termin sifatida maxsus bir usul – san'at deb ta'riflanadi va o'zbek klassik g'azaliyotidagi g'azal turlaridan biri – *g'azali muvashshah* haqida ma'lumot beriladi. Muvashshahga badiiy san'at sifatida qarash yana boshqa manbalarda ham uchraydi.

Maqsud Shayxzoda "Furqat haqida qaydlar" maqolasida muvashshahni janr deb ataydi. F.Salayev, G.Qurboniyozovlarning "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi"da ham u lirik janr sifatida beriladi. "Adabiy turlar va janrlar" uch jildlik o'quv qo'llanmaning 2-jildida hamda E.Xudoyberdiyevning "Adabiyotshunoslikka kirish" darsligida ham muvashshah shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko'ra lirika janrlari qatorida beriladi. Uning o'ziga xos janr shakli belgilariga ega emasligi, ya'ni boshqa janr shakllarida yaratilishi, shuningdek, janr talablariga to'la javob bermasligi jihatidan mustaqil janr bo'la olmasligi ma'lum bo'ladi. Shunga ko'ra muvashshahni tavshih lafziy san'ati asosida yaratilgan she'riy shakl deyish maqsadga muvofiqdir va quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Mavzusiga ko'ra: ishqi(majoziy), diniy-tasavvufiy, ijtimoiy.

2. Turli janr shakllarida yaratilganiga ko'ra: muvashshah-g'azal, muvashshah-ruboiy, muvashshah-muammo, muvashshah-qit'a, muvashshah-muxammas, muvashshah-murabba', muvashshah-musamman, muvashshah-mustazod kabi.

3. Shaxs yoki narsa nomi berkitilganligiga ko'ra: zamondosh shaxs, vafot etgan shaxs, ayol nomi, erkak nomi, narsa nomi, alifbo harflari.

4. Muvashshah-she'r matnining nomi yashirilgan shaxsga aloqadorligiga ko'ra: nomi berkitilgan shaxsga bag'ishlangan muvashshah, nomi berkitilgan shaxsga aloqasi bo'lmagan muvashshah, shoirning o'z taxallusi yashirilgan muvashshahlar.

5. Muayyan ishoralar mavjudligiga ko'ra: muayyan ishoralar mavjud, ishoralar mavjud bo'lmagan.

6. Vazniga ko'ra:

1) aruz vaznida yozilgan muvashshahlar; a) baytdagi toq misralardan; b) juft misralar yoki qofiyali misralardan; d) baytning har ikkala misrasi qo'shaloq tarzda; e) musammatlarda har bir bandning birinchi misrasi bosh harflaridan ism yoki nom chiqishi;

2) barmoq vaznida yozilgan muvashshahlar: har bir misraning birinchi harflaridan ism yoki narsa nomi hosil qilinadigan va hokazo.

Ushbu she'riy shaklning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abdulloh ibn Mo'tazning(861–908) "Kitob ul-bade'" asari muqaddimasida "Mazkur kitobda biz keyingi davr(ulamolari) "Bade'" deb atagan ilmning bob va fasllarida Qur'on tilida, Rasululloh(s.a.v.) hadislarida, sahobalar va tobe'inlarning so'zlashuv tilida, mutaqqaddim shoirlarning she'rlarida uchraydigan badiiy ifodalarni tasniflab chiqdik" deyish barobarida istiora san'atiga misol keltiriladi. Muvashshahning dastlabki namunalari ham xuddi shu an'anaga ko'ra yaratilganini quyidagi ma'lumot tasdiqlaydi: "O'tmishda baytlarning bosh harflari orqali biron oyat, hadis yo hikmat ham bayon qilingan". Biroq manbada bunga misol keltirilmaydi. Rus sharqshunosi I.Y.Krachkovskiyning "Ispaniyada arab she'riyati" asarida qayd etilishicha, arab-istan adabiyoti tarixchisi, Portugaliyaning Shantarena shahridan bo'lgan Ibn Bassam(vaf. 1147) bergan ma'lumotlarga ko'ra, muvashshah birinchi bo'lib X asr boshlarida Kordova(Ispaniya)da yashagan shoir Muqaddam ibn Muofa al-Kabriy tomonidan yaratilgan. Boshqa manbalarda bunday she'rlar arablarda musiqaga solib kuylangani yoziladi.



Professor Fozila Sulaymonova "Sharq va G'arb" asarida muvashshah arablarning Ispaniyadagi hukmronligi davrida yaratilganini ta'kidlab, shunday yozadi: "XI–XII asrlarda Ispaniyada arab she'riyatining muvashshah va zajal janrlari keng rivojlandi. Bunday she'rlar yaratgan shoirlarning mashhuri Abu Bakr Muhammad ibn Zuhri(1110-1111-yillar vafoti) edi. Arab she'riyati bayt, muvashshah esa band asosiga quriladi. Bu janrlar ikki xalq adabiyotining o'zaro birlashuvi natijasida dunyoga kelgan ikki madaniyat mahsulidir". Shuningdek, olim ayrim G'arb olimlarining muvashshah Yevropa she'riyati ta'sirida yaratilgan, degan asossiz da'volariga javob tariqasida kuyunchaklik bilan shunday yozadi: "... Ajabo, ovrupolik olimlar qanday yo'l bilan bo'lmasin o'zlarini ko'tarish, Sharqni kamsitishga urinadilar. Axir ular faraz qilgan portugal folklor she'riyatidan biror namuna, birorta ham misra yo'q-ku, arab she'riyatida esa g'azal mavjudligiga e'tibor bermaydilar. Ovruopolik olimlar fikrlarining tasdig'i sifatida arablar hukmronligi davrida yaratilgan zajal, ayniqsa, muvashshahda ispan so'zlari, misralari mavjudligini keltiradilar. To'g'ri, Andalusiya aholisi ikki tilli bo'lgan. Shuning uchun xalq vakillari tomonidan ashula qilib aytishga mo'ljallangan she'rlarda ispan so'zlari uchrashini Ovruponing qadimiy she'riyati deb bo'lmaydi". Olima o'z fikrini akademik I.Krachkovskiyning "Ispaniyada arab she'riyati" tadqiqotida keltirilgan quyidagi fikrlari bilan asoslaydi: "Ispaniyadagi arab she'riyati ilk bor provansal, u orqali butun Ovru-po xalqlari she'riyatiga ta'sirini o'tkazgan". Bu kabi ilmiy qarashlarni professor N.Komilovning "Tafakkur karvonlari" asarida ham uchratish mumkin: "Rumoniylar xalqlarining og'zaki ijodiyoti, raqs va musiqa san'ati bilan arab she'riy ohanglari qo'shilib, yangi, o'ziga xos bir madaniyat yuzaga keldi. Ikki tilli xalqning ikki tildagi she'riyati, xususan, "shir-u shakar" zajal(o'zbek mumtoz adabiyotida har bir bandi to'rt misradan iborat murabba' shaklidagi she'r)larda yaqqol ko'zga tashlanadi. Zajalni muvashshah ham deganlar, u xuddi g'azal kabi qasidaning bosh qismi – nasibdan (lirik kirish – tabiat tasviri) kelib chiqqandir". Olim G'arb sharqshunosi Menendes Pidalning bu boradagi jo'yali mulohazalari bilan fikrini asoslaydi: "She'riy janrning bu turi X–XII asrlarda Ispaniya, Italiya hamda Fransiya keng taraqqiy etgan. Atoqli zajalnavis shoirlar Ibn Kuzman bilan Ibn Zaydun Yevropa shaharlari bo'ylab o'z asarlarini kuylab yurganlar... Arablar borganga qadar lirik she'rning bu turi G'arbiy Yevropada yo'q edi". Tarixchi Ibn Xaldun, zajal dastlab arab shoiri Muqaddam ibn Muofa al-Kabriy(IX asr) tomonidan adabiyotga kiritilgan, deydi. Zajal musiqaga mo'ljallab bitilganidan u hamisha qo'shiq qilib kuylangan.

(Davomi 4-betda.)



O'ZBEK ADABIYOTIDA MUVASHSHAHCHILIK AN'ANASI

(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

M.Pidal aytmoqchi, Sharq-u G'arb ruhi mujassamlangan bu she'riyat – “ikki madaniyat qonidan paydo bo'lgan farzanddir”. E'tibor beradigan bo'lsak, F.Sulaymonova muvashshah va zajalga alohida janr sifatida qaraydi, N.Komilov esa zajalning muvashshah deb ham nomlanganini ta'kidlaydi. Agar uning turli she'riy janrlarda yaratilishi mumkinligini e'tiborga oladigan bo'lsak, zajalni muvashshahning murabba' janrida yaratilgan turi, degan xulosaga kelish mumkin. Xullas, musammatlarning vujudga kelishida muvashshah va zajal kabi arab she'riyatidagi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli bo'lganligi muvashshahning qadimiy janrlardan ekanligini ko'rsatadi.

Muvashshah G'arbshe'riyatida “краестишие”(chetki satr) yoki akrostix(yun.akros – chekkasi, stichos – misra) deb nomlangan she'riy shaklga o'xshaydi. Akrostixda ham yuqoridan pastga qarab o'qilgan she'r misralarining bosh harfidan so'z yoki jumla hosil qilinaadi. Shu tarzda ko'pincha muallif yoki she'r bag'ishlangan shaxsning nomi yashirilgan. Akrostixdan tashqari misralarining oxirgi harflari muayyan so'zni shakllantiradigan – telestix, shuningdek, so'z she'rning o'rtasida keladigan – mesostix borligi ham ma'lum. Bundan tashqari, “labirint” – so'zlarni diagonal ravishda joylashtiriladigan turi ham mavjud. Ammo ular ancha kam tarqalgan.

XVIII-XIX asrlarda Qo'qon, Xorazm va Buxoro adabiy muhitlari taraqqiy etdi. Bu davrni, shubhasiz, o'zbek adabiyotida muvashshahchilikning an'anaga aylangan davri, desak adashmaymiz. Bunda Uvaysiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning xizmatlari katta bo'ldi. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib muvashshahchilik an'anasi keng yoyilib, ommalashib ketganini Maqsud Shayxzoda alohida ta'kidlaydi. Mazkur davrdagi muvashshahlar, asosan, g'azal janrida, qisman musammatlarda yaratildi.

Muvashshahlar ko'pincha ishqiy mavzuda yaratilgani holda ma'shuqaning ta'rif-u tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo'ladi. Shuning uchun “...muvashshah kimning ismiga bog'langan bo'lsa, o'sha g'azalda ta'rif etilgan obraz aynan mazkur kishining o'zidir deb o'ylash xatodir, – deb yozadi M.Shayxzoda. Muvashshahdagi ism bu g'azalning kimga bag'ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo'lishi mumkin. Masalan, Furqatning “Maqsudjon” ismiga bag'ishlangan g'azalida ...sevgili yor obrazida tasvirlangan kishi “Maqsudjon” emas, balki go'zal bir ayoldir”. Muqimiyning Jamolxon nomi bilan bezalgan muvashshah-g'azalidan olingan quyidagi satrlar ham buni tasdiqlaydi:

*Jumlayi Ho'qand mavzun qadrlarining sarvari,
Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari.
Mahv o'lub mardum xiromini ko'rub bozor aro,
Deydilar ba'zi “malak”,
ba'zi “bashar”, ba'zi “pari”.*

Darhaqiqat, g'azalda ta'rif-tavsif qilingan, ko'rganlar malakmikan, basharmikan, yo parimikan deb mahliyo bo'lgan dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari, albatta, Jamolxon ismli kishi emas, balki butunlay boshqa bir go'zal. Yoki Muqimiyning Nizomxon nomiga bag'ishlangan muvashshah-g'azalini ko'zdan kechirsak:

*Necha gulchehra oshiqlig'da hayroning bo'lay,
Bulbuli sho'ridadek mahvi gulistonig bo'lay.
Zulm ila javr-u sitam aylab tag'ofil topki,
Kel, niqobingni ochib, ey sho'x, qurboning bo'lay.*

*El giriftoring agar qosh-u ko'z-u ruxsoringa,
Men asiri anbarin zulfi parishoning bo'lay.
Muddao har dilda, lekin menda shulkim orzu,
Bismili tig'i nigohi tiyri mujgoning bo'lay.
Xurrami xandon netar, jonoki, kelsang oqshami,
Lutflar aylab debon: “to subh mehmoning bo'lay”.
Aylag'il oxir o'zung insofkim tokayg'acha,
Ro'zi shab ummidvori ahdi yolg'oning bo'lay.
Nogohon har baytidan bir harfdin olib Muqim,
O'qi, noming chiqmas ersa nomusulmoning bo'lay.*

Mazkur g'azal an'anaviy 7 baytdan iborat bo'lib, har bir baytning toq misralaridagi birinchi so'zning bosh harfi(“necha”dan “n”, “zulm”dan “z”, “el”dan “o”, “muddao”dan “m”, “xurrami”dan “x”, “aylag'il”dan “o”, “nogohon”dan “n”) terib olinib, bir joyga yig'ilsa, “n-z-o-m-x-o-n” ismi hosil bo'ladi. Bu o'rinda g'azalning arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvida yaratilganligi hisobga olinsa, “n”dan so'ng “i” qo'shiladi va natijada “Nizomxon” ismi kelib chiqadi. Demak, g'azal “Nizomxon” ismli kishiga bag'ishlangan. She'rning qahramoni esa Nizomxon emas, balki an'anaviy yor obrazi. “Lekin Kamiy muvashshahlari misolida bu qonuniyatga zid holatni ham ko'rish mumkin”, deb yozadi adabiyotshunos O.Oltinbek toshkentlik shoir Kamiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida. Kamiy ijodidagi Abdulazizxon nomiga yozilgan muvashshahlardan biri noma shaklida bo'lib, undagi barcha ta'rif-u tavsiflar Abdulazizxonga tegishli:

*Abdulazizxoni saodat maobgo,
Ma'zuri ojizona yetur bandin, ey sabo.
Boshingni ostoniga qo'y avvalo borub,
Yuz-u ko'zing surub dar-u devor-u qasrig'o...
Yo rab, Kamiy qulingni duosin ijobat et,
Ul sayyidim haqina ba e'zozi Mustafo.*

Bu shaxs haqida professor G'.Karimovning “Muqimiy” monografiyasida shunday ma'lumot berilgan: “Abdulazizxon – Eskijo'va tomondan, O'zgand mahallalik. Abdulazizxon erkin fikrli, ma'rifatparvar va san'at-adabiyotga havaskor kishilardan edi. U shoir, olim va san'atkorlarga moddiy yordamda bo'lgan. Uning uyi ilg'or intilishlarga ega bo'lgan Toshkent shoirlarining adabiy gurung markaziga aylangan. Muqimiyning u kishi haqida “Xon akam” sarlavhali she'r yozgani ma'lum”. Shoir Furqat esa o'zining Istanbuldan turib yozgan mashhur “Sabog'a xitob” she'riy maktubida Abdulazizxon nomini o'zining yaqin do'stlari qatorida tilga oladi. Adabiyotshunos olim Sh.Yusupov bu kishining to'la ismi sharifi Abdulazizxon Boboxon o'g'li ekanini aytadi va “o'zi uchrashgan, hamsuhbat bo'lgan ajoyib zotlar” haqida bir emas, to'rtta kitob tasnif etgani haqida ma'lumot beradi. O'zidan 10-11 yosh katta bo'lgan bir zamondoshini “saodat maob”, “janobi oliy”, “sayyidim” deb atashi shoirning Abdulazizxon shaxsiga hurmat-u ixlosini anglatadi. Demak, ma'lum bo'ladiki, ba'zan muvashshahdagi vasf o'sha muvashshah kimning nomiga yozilgan bo'lsa, shu nom egasiga tegishli bo'lishi ham mumkin ekan”. Xuddi shunday muvashshah turini yuqorida Atoulloh Husayniyning Alisher Navoiyga bag'ishlab yozgan “Alisher” ismi yashirilgan muvashshahida ham guvohi bo'lgan edik.

Odatda, she'rning muvashshah ekanligiga muayyan ishoralar bo'ladi. Masalan, Muqimiyning *Jamolxon* nomi yashirilgan g'azalining muvashshah ekanligini g'azal maqta'sidagi ishoradan anglash qiyin emas:

*Nogohon olsang Muqimiy, avvali har baytidin,
Harflar ravshan bo'lur, albatta, ismin gavhari.*



Yoki *Abdullohxon* ismi muzayyan qilingan g'azalning muvashshah ekanligiga shoir:

*Nazmimi(mag'zig'a vasfini), Muqimiy (toj etib,)
Naylayin har dam o'qib, nomingni takror etmayin, –*

misralari orqali ishora qiladi. Shuningdek, ko'pincha g'azal maqta'sida *muvashshah* so'zini aynan keltirish holatlari ham kuzatiladi. Jumladan, *Tojixon* nomiga bitilgan muvashshah-g'azal:

*Nomig'a aylarmu muvashshah,
muhabbatdin Muqim,
Bo'lmas odamg'a agarchandi parilar oshno, –*

misralari bilan yakunlanadi.

Shuningdek, Sidqiy Xondayliqiy va Furqatning shogirdi Amoniy Araboniy muvashshahlarining ayrimlari “*Muvashshah*” sarlavhasi ostida berilgan. Odatda g'azallarga sarlavha qo'yilmagan, lekin Sidqiy Xondayliqiyning 1998-yilda nashr etilgan “Tanlangan asarlar”idagi “Sobirxon” ismi muvashshah qilingan g'azaliga berilgan izohda “She'r o'z nomi bilan berildi va tushib qolgan maqta'dan oldingi bayt tiklandi” deyilganidan, demak she'r aynan “*muvashshah*” deb nomlanganini bilish mumkin. Lekin ochiq ishoralar uchramaydigan muvashshahlar ham talaygina.

Mumtoz she'riyatimizda muvashshahlar, asosan, erkak nomiga bitilgani holda ayol ismlari muvashshah qilingani kuzatiladi. Xususan, Muqimiyning “Adolxonim”, Haziniyning “To'faxon”, “Ashuroyxon”, “Oyshaxon”, “To'tixon”, “To'ti”, Hamzaning “Dilbarxon”, Feruzning “Fanojon”, Sadridin Ayniyning “Ninaxon” kabi ayollar ismi bilan ziynatlangan muvashshahlarini eslash kifoya. Shuningdek, shoirlar ijodida ham bu she'riy shaklning uchrashi va ularning ayrimlari erkaklar ismiga yozilganini shoir Uvaysiy ijodida kuzatgan edik. Shoir Muazzamxon ijodida ham o'g'li Muzaffarxon nomiga bitilgan muvashshahning uchrashi bu she'riy shaklga ayol shoirlar ham befarq bo'lmaganliklaridan dalolat beradi.

Arofati MO'YDINOVA,
CHDPU “O'zbek adabiyotshunosligi”
kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori(PhD)



Aks-sado

Adabiy ta'lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari xususida

“Ma’rifat” gazetasi O‘zbekiston ziyolilarining eng sevimli va zaruriy nashrlaridan biridir. Unda chop etilayotgan turkum maqolalarning mehvarida ta’lim sifati va samaradorligini yuksaltirish masalasi yotadi. Gazetaning joriy yil 17-sentabrda adabiyotga bag‘ishlangan maxsus sonida pedagogika fanlari doktori, professor Valijon Qodirovning “Adabiy ta’lim: muammolar va yechimlar yuzasidan mulohazalar” nomli dolzarb maqolasi chop etildi. Muallif o‘zining analitik tafakkuri, sinchkov nigohi, boy ilmiy-pedagogik tajribasiga tayanib, adabiy ta’lim yutuqlarini e’tirof etadi, og‘riqli nuqtalarini asoslaydi, muammolarni bartaraf etishning oqilona pedagogik yo‘llarini tavsiya qiladi. Biz quyida jonkuyar metodist olimimizning fikrlaridan to‘lqinlanib, adabiy ta’lim sifatini rivojlantirish muammolari va yechimlari xususida shaxsiy qarashlarimizni bayon etishga ahd qildik.

Adabiy ta’lim o‘quv fanlari sirasidagi hissiy-tafakkuriy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, o‘quvchi qalbini poklab, fikrlarini charxlovchi, dunyoqarashini kengaytirib, axloqini yuksaltiradigan fanlardan biridir. Adabiyot o‘qitish o‘quvchi va talabalarining bilish darajasini ham tuyg‘ular, ham tafakkur vositasida yuksaltirishga xizmat qilishi bilan yanada ahamiyatlidir. Adabiy ta’lim badiiy asarlarning voqelinishiga yo‘l ochadi, yosh avlodni teran fikr yuritish, o‘zlikni anglash va uni asrashga o‘rgatadi. Adabiyot o‘qitish millatning ertasi, kelajagini ko‘zlaydi, uning barhayotligini ta’minlashga xizmat qiladi. Jadidlarimizning yorqin namoyandalaridan biri Abdullahid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ta’kidlaganidek: “Adabiyot yashasa – millat yashaydi”.

Badiiy asarlarning butun sehr-u jozibasi, ma’naviy-ma’rifiy quvvati o‘quvchi qalbiga, adabiyot muallimining pedagogik bilimi, metodik mahorati vositasida mustahkam kirib boradi. Hamma gap – o‘qituvchining kasbiy qobiliyatida, nazariy mukammalligi, amaliy jihatdan yuksakligidadir. Gap adabiyot o‘qituvchisi haqida borar ekan, uning badiiy tafakkuri, nozik didi, nafasat uquvi, ijodkorlik maqomi, tuyg‘ulanish darajasi kasbiy qobiliyatining muhim unsurlari sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Bularning barchasi adabiy ta’lim sifatiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. O‘zbek pedagog olimi Abdulla Avloniy: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgon, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng darajada muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”, deya ta’kidlaydi.

Bugungi oliy ta’lim oldida keskin dilemma turibdi: diplomga ega kadr tayyorlash kerakmi yoxud o‘z ishini yaxshi biladigan mutaxassis? Albatta, shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda, tobora kuchayib borayotgan raqobat vaziyatida qiyinalmay samarali faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan mutaxas-

sis tayyorlash kerak. Bu shunday mutaxassis bo‘lishi lozimki, u har qanday vaziyatda o‘ziga yo‘l topa olishi, har qanday sharoitga moslasha bilishi, har qanday foydali yangilikni o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, har qanday masalaga tanqidiy hamda turli tomondan qaray olishi zarur.

Bizningcha, adabiy ta’limdagi muammolarning tub ildizi kadrlar tayyorlashga, aniqlik, pedagogika institutlarining o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi uchun talabalar qabul qilish jarayoniga borib taqaladi. Amaldagi qabul tartiblariga ko‘ra, filologiya ta’lim yo‘nalishlari uchun abituriyentlar test sinovlaridan o‘tib, natijalariga asosan talabalikka tavsiya etiladilar. Abituriyent test sinoviga kiradi, taqdim etilgan savollarni o‘qiydi, muqobil javob variantlaridan birini “to‘g‘ri” deb topadi, tegishli ishorani qo‘yadi – tamom, bu yog‘i natijaga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonlarining adolatli, shaffof o‘tayotganligini inobatga olsak, e’tirozli fikrlarimizga o‘rin yo‘qdek tuyuladi.

Muammo shundaki, oliy filologiya ta’lim yo‘nalishiga talabalar qabuli jarayonlarida abituriyentlarning yozma savodxonligi, og‘zaki nutq imkoniyatlari, badiiy tafakkuri, kitobxonlik madaniyati, tahliliy ko‘nikmalari, ifodali o‘qish darajasi, o‘qigan badiiy asarlardan hayotiy xulosalar chiqarish uquvi, fikrlash quvvati sinovdan o‘tkazilmaydi, umuman tekshirilmaydi. Natijada badiiyatdan yiroq, tuyg‘ulari so‘niq, fikrlari tarqoq, badiiy asar o‘qimaydigan, oddiy she’mi ham ifodali aytib bera olmaydigan, imlosi nochor, aqli “g‘ovlab” ketgan abituriyentlarning talabalar safiga kirib qolish holatlari kuzatiladi. Tabiiyki, so‘z sehidan hayratlanmaydigan, badiiy asardan entikmaydigan, ruhiyatida filologlarga xos asl sifatlar mavjud bo‘lmagan talabadan haqiqiy ona tili va adabiyot o‘qituvchisi chiqishi mushkul ishdur. “Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi”, albatta. Ammo “kurmaklar ko‘p bo‘lsa-chi?!” Ularning bittasi mingtaga tatimaydimi? Kun kelib millatning farzandi aynan shunday “bilimli” talabadan yetishib chiqqan o‘qituvchi qo‘lida qanday tarbiya topadi?!

Biz shu o‘rinda, oliy filologik ta’lim yo‘nalishlariga, jumladan, ona tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishiga talabalarni qabul qilishning uch bosqichli tizimini tavsiya etamiz. Bu uch bosqich biri ikkinchisini to‘ldiradi, mantiqiy izchil, dinamik xarakterli, eng muhimi, adabiyotga ixlosmand, qobiliyatli, o‘qituvchi bo‘lishga loyiq yigit-qizlarni saralab olish imkonini beradi.

Birinchi bosqich – test sinovi. An’anaviy bu bosqichda abituriyentlarning nazariy bilimlari sinovdan o‘tkaziladi. Bu jarayon kelajakda filolog o‘qituvchi bo‘lishga



chindan loyiq bo‘lganlarni hamda bir qiziqish, havas bilan yurgan yigit va qizlarni ham sinov maydonida birlashtiradi, “Alpomish” dostonida Barchinoy tilidan aytilganidek, “Zog‘ ham bo‘lsa qo‘na bersin gulshanga” holati yuz beradi. Test sinovidan o‘tib saralangan abituriyentlar ikkinchi bosqichga o‘tadilar.

Ikkinchi bosqich – yozma savodxonlikni aniqlash bosqichi. Bu bosqichda bo‘ljak filologlarning kasbga yo‘naltirilganlik qobiliyati, savodxonlik darajasi, fikrlash doirasi esse, insho yozish yo‘li bilan sinovdan o‘tkaziladi. Yozma savodxonlik shartlariga husnixatda yozish; imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik; ifodafiy teranlik, mantiqiy izchillik, lug‘aviy boylik kabi mezonlar kiritiladi. Sinovning bu turi ancha murakkab bo‘lib, o‘qituvchilik kasbini egalashi uchun munosib bo‘lgan talabgorlarni aniqlash, saralab olish imkonini beradi. Yozma savodxonlik sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan abituriyentlar uchinchi bosqichda qatnashish huquqini qo‘lga kiritadilar.

Uchinchi bosqich – ijodiy sinov bosqichi. Bo‘ljak ona tili va adabiyot o‘qituvchisi badiiy so‘zni taniyadigan, uni his qiladigan, o‘qigan badiiy asarini tahlil etishga qodir, hayotiy xulosalar yasashga qobil bo‘lishi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyent o‘zining kitobxon, ifodali o‘qish sirlaridan voqif, so‘zga chechan, ijodkorlik sifatlarini namoyon etadi, mashhur asar yuzasidan tahliliy fikrlarini bildiradi. Sinovning bu bosqichida abituriyentning adabiyot o‘qituvchisi bo‘lish iqtidori yaqqol ko‘rinadi, yuqori natija ko‘rsatganlari esa talabalikka tavsiya etiladi.

To‘g‘ri, ona tili va adabiyot ta’lim yo‘nalishlari uchun talabalikka qabul jarayonlarining bunday bosqichli o‘tishi ma’lum vaqt, mablag‘, mehnat talab qiladi. Ammo natijasi, shubhasiz, ta’lim sifati samaradorligini keskin yuksaltiradi. Qabul jarayonining bunday tizimi kadrlar soni uchun emas, mutaxassislar tayyorlash sifati uchun xizmat qiladi, adabiy ta’limning ravnaqini ta’minlashga puxta zamin yaratadi.

Modomiki, adabiy ta’limdagi muammolarni hal qilmoqchi ekanmiz, bizningcha, ishini kadrlar tayyorlash sifatini isloh etish, qabul jarayonlarini modernizatsiya qilishdan boshlash eng maqbul va samaralidir.

Sharobiddin HASANOV,
ADPI “O‘zbek tili va adabiyoti”
kafedrası professori,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD)

“Ma’rifat” gazetasining 2025-yil 17-sentabr sonida e’lon qilingan professor Valijon Qodirovning “Adabiy ta’lim: muammolar va yechimlar yuzasidan mulohazalar” nomli maqolasi menda katta taassurot uyg‘otdi, soha kishisi sifatida bir qator o‘y va mulohazalarga turtki berdi. Maqolani universitetimizning filologiya fakulteti talabalari bilan muhokama ham qildik. Uni bugungi o‘zbek ta’lim tizimida adabiyot fanini o‘qitish masalalariga ilmiy-nazariy va amaliy-metodik nuqtayi nazardan yondashilgan, mazmunan dolzarb hamda ijtimoiy ahamiyatga molik ilmiy maqola sifatida e’tirof etish mumkin, degan to‘xtamga keldik.

Adabiy ta’limda yangi yondashuvlar

Muallif adabiy ta’limning ildizlarini, jadid ma’rifatparvarlari faoliyatidan boshlab hozirgi davrgacha bo‘lgan jarayonni kuzatib, o‘zbek metodika ilmining shakllanish bosqichlarini tizimli tahlil qiladi. Abdurauf Fitrat, Subutoy Dolimov, Quadrat Ahmedov, Asqar Zunnunov kabi metodist olimlarning tajribasiga tayanib, ularning ilmiy merosi zamonaviy adabiy ta’lim uchun poydevor bo‘lib xizmat qilganini ilmiy asoslab beradi. Shu bilan birga, adabiyot o‘qitishning bugungi holatini milliy ta’lim siyosati bilan bog‘lab ko‘rsatishi maqolaning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Muallif nafaqat muammolarni sanaydi, balki ularning ildizini metodika, mazmun, motivatsiya va kadrlar tayyorlash tizimidagi uzilishlar bilan izohlaydi, bu esa maqolani nazariy-analitik tadqiqot darajasiga ko‘taradi.

Maqolaning ilmiy ahamiyati, avvalo, adabiy ta’lim nazariyasining hozirgi bosqichini qayta baholash, yangi paradigmalarga asoslangan yondashuvlar zaruratini asoslab berganidadir. Muallif o‘quv dasturlari, darslik va metodik qo‘llanmalarni yaratishda psixologiya, pedagogika, filologiya fanlari integratsiyasiga tayangan holda ilmiy-metodik asos zarurligini ta’kidlaydi. Bu fikr adabiyot o‘qitish metodikasining mustaqil fan sifatidagi rivojini yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy ta’limda ilmiy asoslangan model yaratish zarurligini ko‘rsatadi. V. Qodirovning takliflari, xususan, fanlarni yosh xususiyatlari va idrok bosqichlariga mos rejalashtirish, adabiyot turlarini modullar asosida o‘qitish, metodik komponentlarni algoritmik ketma-ketlikda tashkil etish haqidagi g‘oyalari metodika faniga yangicha konseptual yo‘nalish olib kiradi.

Maqolaning amaliy ahamiyati ham nihoyatda yuqori. Unda ilgari surilgan tavsiyalar, xususan, ta’lim bosqichlarida tajriba-sinov asosida o‘quv dasturlarini yaratish, darsliklarni haqiqiy metodistlar tomonidan ishlab chiqish, ilg‘or ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar bevosita amaliyotda qo‘llashga tayyor metodik dastur sifatida qadrlidir. Muallifning qarashlarida ta’lim tizimida “bola nimani va qanday idrok etadi?” degan psixologik-pedagogik tamoyil asosiy mezon sifatida ilgari suriladi. Bu yondashuv adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchi markazli, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tish uchun zarur konseptual asosni yaratadi. Shu bois maqola nafaqat nazariy, balki metodik jihatdan ham o‘qituvchilar, metodistlar, darslik mualliflari uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Mazkur maqola ta’lim sohasiga mas’ul davlat idoralari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki unda mavjud tizimdagi muammolar – kadrlar tayyorlash, metodik qo‘llanmalarining yetishmasligi, baholash mezonlari va o‘quv dasturlaridagi uzilishlar asosli tahlil qilingan. Muallif adabiy ta’limni rivojlantirishda davlat siyosati va milliy mafkura uyg‘unligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda uzoq muddatli ilmiy asosga tayanish zarurligini ko‘rsatadi. Bu jihatlar adabiyot fanini milliy ma’naviyatni shakllantirish vositasi sifatida e’tirof etuvchi davlat hujjatlari — Prezident qarorlari, konseptual dasturlar ruhiga mos tushadi. Shu sababli, maqola Maktabgacha va maktab ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari, shuningdek, malaka oshirish markazlari uchun metodik siyosatni belgilashda nazariy asos sifatida foydalidir.

Umuman olganda, professor Valijon Qodirovning ushbu maqolasi hozirgi adabiy ta’lim tizimida mavjud muammolarning kompleks tahlilini beradi, ularning sabab-oqibatini chuqur ilmiy asosda yoritadi hamda taklif etilgan yechimlar orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar o‘zbek adabiyotini o‘qitishda innovatsion metodlarni joriy etish, yosh avlodga estetik did, badiiy tafakkur, mustaqil fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Muallifning ilmiy yondashuvi, tahlilning izchilligi va amaliy natijaga yo‘naltirilganligi maqolani adabiy ta’lim metodikasi bo‘yicha so‘nggi yillardagi eng muhim ilmiy ishlardan biriga aylantiradi. Shu bois mazkur mulohazalar (aslida mo‘jaz ilmiy g‘oya) nafaqat ilmiy maqola, balki metodik siyosatni shakllantiruvchi konseptual hujjat darajasida baholanishi lozim.

Maqsuda SARIBOYEVA,
Guliston davlat universiteti
“O‘zbek adabiyotshunosligi”
kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi



Sinab ko'ring

“G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” asari ustida ishlash

(10-sinf adabiyot fanida qo'llash uchun)



Biror asarning o'quvchilar xotirasida yaxshi qolishi, ularni darsga jalb etish, diqqatini jamlash uchun turli usul va metodlarni qo'llash muhim hisoblanadi.

“Fotosharh” usuli. Sinf guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh o'ziga nom qo'yadi. Guruhning bittadan a'zosi navbat bilan stol ustiga qo'yilgan tarqatma suratlaridan birini tanlaydi va shu surat asosida “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” asari sujetiga oid ma'lumot aytadi. Quyidagi suratlar taqdim etilishi mumkin:

Metodning afzalliklari:

1. O'quvchilarning kreativ fikrlashi rivojlanadi.
2. Asar matni va sujeti ustida to'liq ishlashga, har bir detal bilan tanishishga yordam beradi.
3. Integratsiya jarayonining amalga oshirishini ta'minlaydi.

O'quvchilar bergan javobiga ko'ra baholanadi. Bu usulni barcha sinflar uchun darslikning “O'tilganlarni takrorlash” hamda “Mustahkamlash” qismlarida qo'llash o'rinli.

“Omad lotto” usuli. O'qituvchi tomonidan “Omad lotto” barabani tayyorlanadi. Baraban ichiga pul(soxta) qo'yiladi. Pullar ortiga mavzuga doir savollar yoziladi. O'quvchi yuqori baho olmoqchi bo'lsa, 100 yoki 50 ming so'mlik pullarni, “4” baho olmoqchi bo'lsa, 20 yoki 10 ming so'mlik pullarni, “3” baho uchun esa 5 va 2 ming so'mlikni tanlashlari kerak.




Kutiladigan natijalar:

1. O'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi.
2. O'zini baholash, bilimlarini sarhisob qilish ko'nikmasi shakllanadi.
3. Og'zaki savodxonlik oshadi.

O'quvchi tanlagan pul miqdoridan kelib chiqqan holda baholanadi. Sababi, savollarning qiyinlik darajasi shunga qarab belgilanadi.

“Ekivoki” usuli. Bu usul orqali o'quvchilar asar matni, undagi shaxs va predmetlar bilan to'laonli tanish bo'ladi. Dars davomida asarga qiziqmagan, o'qimagan o'quvchi ham bevosita boshqa o'quvchilar faolligi

natijasida qiziq boshlaydi. O'quvchilar stol ustidagi tarqatmadan birini tanlaydi. Unda yozilgan shaxs yoki predmetga asardan kelib chiqqan holda ta'rif aytishlari kerak. Masalan, “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” asari bo'yicha quyidagi so'zlar berilishi mumkin:



1-loyiha ishi

“Taqqos va tahlil” loyihasi. O'quvchilar 3 yoki 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga uyga vazifa qilib alohida topshiriq beriladi. Aynan shu topshiriq asosida keyingi darsda loyiha ishi bajariladi. Topshiriqlar quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq.



I jahon urushi hamda II jahon urushi haqida internet saytlari hamda kitob, jurnallardan ma'lumotlar yig'ing. Urush keltirgan zararlar ro'yxatini tuzing.



O'zbek xalqining urush davridagi ishtiroki aks etgan badiiy asarlar hamda she'rlarni aniqlang. O'zbek adabiyotidagi urush davri haqidagi asar bilan "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" asaridan olingan parchani taqqoslang.



Asarning eng ta'sirchan o'rinlarini aniqlang. Qahramonlar ro'yxatini tuzib, ularning asarda tutgan o'rnini haqida esse yozing.

Ishning afzalliklari:


1. O'quvchilarning vaqtini samarali taqsimlashga yordam beradi.
2. Mushohada qilish, taqqoslash sifatlarini rivojlantiradi.
3. Og'zaki va yozma savodxonligini oshiradi.
4. Tahlil qilinayotgan badiiy asarning g'oyasi, tagma'nolarining to'laonli ochib berilishiga ko'mak beradi.
5. O'quvchilarning kommunikativ, kreativ, kollaborativ sifatlarini yuksaltiradi.

Jamoalarga har bir javobi uchun bittadan “yulduzcha” tarqatma berib boriladi. Dars so'ngida yulduzchalar hisoblanib, g'olib jamoa aniqlanadi.

2-loyiha ishi

“Kinoteatr” loyihasi

O'quvchilarga darsning boshida asar asosida olingan kinofilm taqdim etiladi. Qisqa parchadan o'quvchilarning olgan taassurotlari so'raladi. Fikrlar eshitilgach, darslikdagi asardan parchani o'qish boshlanadi.




“G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” asari haqida video-rolik skanerlash orqali tomosha qilinadi: https://vk.com/video-186124728_456246596. Yuqoridagi havola orqali asar asosida suratga olingan badiiy film namoyish etiladi.

Kutiladigan natijalar:

1. Mavzuning keng o'rganilishiga yordam beradi.
2. Kinoni to'liq ko'rgach, asar sujeti haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
3. O'quvchilarning dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladi.

3-loyiha ishi

“Mantiq sarhadi” loyihasi. O'qituvchi tomonidan asar qahramonlari ismlari yozilgan tarqatma qog'ozlar doskaga ilinadi. Sinf sardorlari guruh bilan kelishgan holda istalgan qahramon ismi yozilgan tarqatmani tanlaydi. Shu ism ortida yozilgan muammoli vaziyatni jamoaviy tarzda tahlil qilishga kirishiladi. Guruhlar tahlilni tugatgach, a'zolaridan bittasi yozilgan javobni izohlaydi.



Bu obrazlarning ismi yozilgan tarqatmalar ortida muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga oid savollar beriladi:

Kutiladigan natijalar:

1. Asar qahramonlarining xarakterini ochishga xizmat qiladi.
2. Asar orqali o'quvchilarda shukronalik, hayotga, Vatanga muhabbat kabi sifatlar uyg'otiladi.

Nima uchun Paul Frans Kimmerixni ko'rganida "Uni asrab qolinglar" deb hayqirgisi kelardi. Shu paytdagi qahramon ruhiy olamini tahlil qiling.

Ximmelstos obrazining bu qadar shafqatsizligini qanday izohlaysiz? Xarakter haqida fikr yuriting.

Sizningcha, Paul urush tufayli nimalarni yo'qotdi? Agar urush bo'lmaganida uning hayot yo'li qanday bo'lishi mumkin edi? Shu haqida fikr yuriting.

3. Jamoaviylik, o'z fikrini erkin bildira olish sifatleri yuksaladi.

Har bir jamoa berilgan topshiriqni qay darajada bajariganiga ko'ra baholanadi.

Marg'uba MAMAJONOVA,
Sherali Jo'rayev nomidagi musiqa va san'at maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Millat mulki

Majlisiy Buxoro adabiy muhitiga mansub qalam ahlidan. U sermazmun va hayajonli nutq so‘zlashga va fikrni izchil, ravon, ixcham va badiiy, sodda ifodalashga usta notiq bo‘lgan. O‘zbek va fors tillarida qalam tebratgan. Shoirning to‘liq ismi noma‘lum, kasbi, ijtimoiy hayotda tutgan mavqeyi, hayot yo‘li va ijodiy faoliyati haqidagi ma‘lumotlar juda kam. Majlisiy – uning adabiy taxallusi. Shoir taxallusining Majlisiy bo‘lishi, Hasanxo‘ja Nisoriyning yozishicha, so‘zga usta, notiq bo‘lgani, bu esa shoirning madrasa ko‘rgani va ilmi bade‘, ilmi kalomni, Sharq mumtoz adabiyoti vakillarining asarlarini yaxshi bilganligidan xabar beradi. U Buxoroda Ubaydulloxon va uning o‘g‘li Abdulazizxon hukmronligi davrida ijod qilgan hamda ularning saroyida muayyan muddat rasmiy lavozimda faoliyat ko‘rsatgan.

MAJLISIY

(Boburning ham e‘tirofi, ham qahriga uchragan shoir)

Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlab qasida yozgan va uning Kobulda tashkil qilgan adabiy majlislaridan birida qatnashgan, bir vaqtning o‘zida Boburning ham e‘tirofiga sazovor bo‘lgan, ham qahriga uchragan. Majlisiy o‘zbek adabiyoti tarixida to‘rt ming misradan iborat *“Qissayi Sayfulmuluk”* dostoni bilan nom qoldirgan. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yili noma‘lum. Ayrim taxminlarga ko‘ra, Majlisiy asli Xorazmdan bo‘lib, XV asrning 70-yillarida dunyoga kelgan, ma‘lum muddat Xuroson va Afg‘onistonda yashagan, Boburning muborak majlisidan(ba‘zi tadqiqotchilar majlis lashkargohda bo‘lgan degan farazni olg‘a surgan) quvilgach, Majlisiy hayotining qolgan qismini Movarounnahrda, xususan Buxoroda o‘tkazgan, XVI asrning birinchi yarmida vafot etgan degan taxminlar bor. Olim Sharafiddinov ham uni Xorazmda tug‘ilgan degan farazni olg‘a surgan(O.Sharafiddinov. Xrestomatiya. Toshkent, O‘z Davlat nashriyoti, 1945. 57–88-betlar). U hayoti davomida ko‘rgan qiyinchiliklar, musofirlikning azoblari haqida *“Qissayi Sayfulmuluk”*ning *“Shoirning so‘zga kirgani”* nomli faslida *“G‘aribdur Majlisiy ozor qilmang, Sinuq ko‘nglin yana abgor qilmang”*, deb musohiblari, zamondoshlariga qilgan murojaati aytilgan lavhada yozgan. Agar mazkur lirik lavhaga diqqat qilsak, unda Majlisiyning ma‘lum ma‘noda Kobulda kechgan hayoti, musofirchilik, podshoh Bobur huzurida jazoga uchragani va yana afv qilingani, quvilgani, aloqasi uzilgani bilan bog‘liq qalbidagi og‘riq, yuragidagi vahima, qo‘rquv, tushkun kayfiyati ham aks etgan.

Hasanxo‘ja Nisoriy yozgan xabarga ko‘ra, Majlisiy XVI asr boshlarida shoir sifatida tanilgan. Boburning ham maqtovi va himmati – yetti ming tangaga sazovor bo‘lgan qasidasi hozircha bizga to‘liq yetib kelmagan, ya‘ni faqat matlasi ma‘lum. Uning devon tuzgan yoki tuzmaganligi ham noma‘lum.

“Muzakkir ul-ahbob” muallifi keltirgan she‘riy namunalarining fors-tojik tilida yozilganligini hisobga olsak, unda Majlisiy o‘zbek va fors tillarida asarlar yaratgan zullisonayn shoirlar qatoridan joy oladi.

Bu fikrlarimizni shoirming quyidagi bayti isbotlaydi:

*Qalam qildi tilimga hamzabonliq,
Iki til birla qildim durfishonliq.*

Adabiyotshunoslikda u haqida ma‘lumot beruvchi yagona manba sifatida Hasanxo‘ja Nisoriyning *“Muzakkir ahbob”* tazkirasini ko‘rsatish mumkin. Yana muallif doston muqaddimasida o‘z hayoti va ijodi, asarning yozilish tarixi, manbalari bilan bog‘liq ayrim tasvir, xabar va o‘ziga murojaat qilib bitgan lavhalarni keltirgan.

Majlisiy ijodi haqidagi ilmiy-tadqiqot va nashr, tarjima ishlari XX asr boshlarida o‘zbek, tatar, ozarboyjon,

turkman, qozoq va rus adabiyotshunosligida boshlangan. *“Qissayi Sayfulmuluk”*dan namunalarini 1924-yili Qozonda, 1959-yili Toshkentda nashr ettirish, tatar adabiyoti tarixi(1924) va o‘zbek adabiyoti tarixi (1974)da *“shoirning ijodi haqida so‘z yuritish, adabiy portretini berish imkoniyati tug‘ildi”* (O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. T.: Fan, 1978. 105–117-betlar).

Majlisiyning adabiy merosini Hasanxo‘ja Nisoriy(1566), Abdurauf Fitrat(1928), Olim Sharafiddinov(1941), P.Qayyumiy(1960), N.Mallayev(1974), A.Ibrohimov(1978), B.Rajabova(2025) kabi olimlar o‘rganishgan.

Majlisiyning hayoti va ijodidan ayrim lavhalarni Hasanxo‘ja Nisoriy *“Muzakkiri ahbob”* tazkirasida yozib qoldirgan. Adabiyotshunoslikda u yozgan hayotiy hikoya ma‘lum ma‘noda ilk ma‘lumot hisoblanadi. Undan Majlisiyning Kobulda Zahiriddin Muhammad Bobur huzurida bo‘lgani, quvilgani va ruboiy, qasida, doston kabi lirik janrlarida she‘rlar yozgani haqida ma‘lumotlar berilgan. Uning baytlaridan namunalar keltirilgan:

“Mavloni Majlisiy nadim va majlisoro, so‘zga chechan, tab‘i esa o‘ynoqi va baland edi. Uning she‘rlari go‘zal, so‘zlari yoqimli bo‘lib, qasidalar ham nihoyat ajoyib va latofatlidir. Bobur podshohga bag‘ishlangan qasidani uning majlisida o‘qigach, podshoh unga yetti ming tanga hadya qilishni ko‘nglidan o‘tkazadi. Shu paytda Bobur undan Muhammad Solihning chig‘atoylar(temuriylar) hajvidagi ruboiysi qanday qilib yozilganligini so‘radi. Majlisiy bu ruboiy Boburga ma‘qul tushgan ekan, deb o‘ylab, shunday javob beribdi: “Bu ruboiyni men yozganman-u Muhammad Solih nomi bilan noto‘g‘ri shuhrat tutgan”. Buni eshitgan Boburning achchig‘i kelib, shoirni o‘limga mahkum etmoqchi bo‘ladi. Lekin uning gunohini kechib, qasida uchun belgilagan yetti ming tangani qon bahosi evaziga o‘tkazib, o‘zini haydab chiqarishni buyuradi...”

Tasvirlangan hikoyada Majlisiy yetuk shoir sifatida gavdalanadi. Bundan tashqari, hali eslatilgan dalil esa Muhammad Solih tomonidan yozilgan ruboiydir. Ma‘lumki, u Shayboniydan yengilgan temuriyzodalar haqidadir”.

Majlisiyning Kobulda podshoh Bobur huzurida bo‘lgani, mushoirada ishtirok etgani, qasidasi uchun podshohning e‘tirof va mukofotiga sazovor bo‘lgani, ammo kibri tufayli Muhammad Solihning temuriylarni tanqid qilib yozgan hajviy ruboiysini *“men yozganman”* deb da‘vo qilgani sabab Bobur qahriga uchragani haqidagi bu hikoya mashhurdir.

Zayniddin Vosifyning yozishicha, Majlisiy amir Shohvali sabab qiyin ahvolga tushadi. Shu bilan birga, Hirotga Shayboniylar bostirib kelgani haqidagi xabar tarqaladi. Bu sovuq xabar butun Hirot ahli, jumladan, Zayniddin Vosifyni ham larzaga soladi. U o‘zining



“Badoye‘ ul-vaqoye” asarida bu payt Muhammad Solihning shu ruboiysini qayta-qayta o‘qib, ta‘sirlanganini yozadi:

“Amir Muhammad Solih Chig‘atoyga atab ajoyib bir ruboiy aytganlar; – deb o‘sha ruboiyni o‘qidi:

*Miskin Chig‘atoyki, kunduzi tundur ong‘a,
Ahvoli parishon-u qaro kundur ong‘a.
Mag‘rur bo‘lub, yer yuzig‘a sig‘mas edi,
Sichqon to‘shugi emdi ming oltindur ong‘a”.*

Bu ruboiyni takrorlay-takrorlay, yod oldim-u, yig‘lagancha uyga keldim. Amir Shohvali nega yig‘laysiz, deb so‘radi. Meni bu ruboiy yig‘latdi, deb o‘qib berdim. U ham, uning odamlari ham rosa yig‘lashdi. Mening gapim ularni g‘amga cho‘mdirdi.

...Noumid bo‘lmanglar. Xudovand hamma narsaning sababchisi va mushkullarni oson qiluvchidir. Bir sabab bilan o‘zi bir tomonga boshqaradi, dedi (Vosify Zayniddin. Badoye‘ ul-vaqoye‘ (Forschadan N.Norqulov tarjimasini). T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. 167-168-betlar).

Professor Fitrat ikki qismdan iborat *“Muhammad Solih”*(Fitrat A. O‘zbek adabiyoti namunalarini. 1-jild. T.: Mumtoz so‘z, 2013.76-bet) nomli maqolasida Majlisiyning tilga olgan. Maqolaning birinchi qismida Muhammad Solihning biografiyasi, ikkinchi qismda esa ijodiy merosi haqida ma‘lumotlar berilgan. Fitrat maqolasida yuqorida zikr etilgan ruboiyga ham to‘xtalgan. Ruboiyni Zayniddin Vosify asaridan olganini va *“Badoye‘ ul-vaqoye”* kitobi o‘z kutubxonasida mavjudligini yozgan. *“Muhammad Solihning turkiy tilida bitgan she‘ri bor”*, degan fikriga isbot tarzida shu ruboiyni keltirgan.

Majlisiy adabiy merosining to‘liq o‘rganilishi 1941-yildan boshlangan. Olim Sharafiddinov o‘zi tuzgan *“Xrestomatiya”*ga *“Majlisiy”* nomli alohida fasl kiritgan. U Hasanxo‘ja Nisoriy yozgan lavhadan foydalangan holda shoirning qisqacha hayoti va ijodi haqida ma‘lumot bergan. Bobur va Majlisiy o‘rtasida kechgan suhbat asosida *“Hasanxo‘ja Nisoriydan naql qilganimiz bu hikoyatdan boshqa bir qaydni uchratmadik. Lekin shuning o‘zi ham Majlisiyning o‘z zamonasidagi shoirlar orasida salmoqli o‘rin tutganini ko‘rsatib turadi”*(Sharafiddinov O. Xrestomatiya. T.: O‘z Davlat nashriyoti, 1945. 57-bet), degan xulosaga kelgan va uning Bobur, Muhammad Solih, Ubaydulloxon singari shoirlarga zamondosh bo‘lganiga ishora qilgan. Shoir adabiy merosiga misol tariqasida *“Qissayi Sayfulmuluk”*ning sujetini bayon qilib, o‘ttiz olti bobning sarlavhasi va ulardan parchalar hamda dostonning xulosasi sifatida yozilgan *“Asar xotimasi”* qismini ham *“Xrestomatiya”*ga kiritgan. Olim Sharafiddinov bergan o‘ttiz olti bob nomi va ularning qisqa sujetlari asar mazmunini, obrazlar olami, til xususiyati va badiiyatidan xabar beradi. Olim asarning bir necha qo‘lyozmasini ko‘zdan kechirib, ularni o‘zaro solishtirgan.

(Davomi 8-9-betlarda.)



(Davomi. Boshi -7-, 8-9-betlarda.)

Mening oldimda chang bo'ldi duto, xam,
Qilur nolish mening holimga yeb g'am...
Uzotib bo'ynini bechora tanbur,
Mening holimg'a yig'lar, nolishin ko'r...
Kuyar ohimga ud-u ham musiqor,
Bo'lub dardimg'a qonun ko'ksun yirtor.

tilidan unumli foydalanilgan. Majlisiyning mahorati quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

1. Asarda Soqiy va Majlisiyning o'ziga qilgan murojaatlari juda ta'sirli chiqqan. Yana roviyga, asar qahramonlari bir-biriga, ota va onaga qilingan murojaatlar haqida ham shunday deyish mumkin. Bu o'quvchiga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi.
2. Adabiyotshunoslikka oid atamalarni qo'llagan:

MAJLISIY

(Boburning ham e'tirofi, ham qahriga uchragan shoir)

Tamomi sozlar bo'lub havodor,
Bari yuzum ko'rib holimg'a yig'lar.
Irsoli masal:

Sulaymon o'ldi-yu, devlar qutuldi,
Aning davrida ko'p g'ussa yutuldi.
Masaldur har kishi cheksa jafoni,
Ki albat ko'rgay ul so'ngra vafoni.
So'zing sing'uncha, dushman bo'yni sinsun,
Ani chorlang, ko'royin, ko'ngli tinsun.

Dostonda eng ko'p murojaat, sifatlash, mubolag'a, o'xshatish, tazod, takrir, jonlantirish, intoq kabi she'riy san'atlar qo'llangani kuzatiladi. Boblar avvalida roviy

nazm, nasr, doston, qissa, 100 qissa, hikoyat, rivoyat.

3. Sovg'a turlari bayonida: sochqilar, ot, to'n, uzuk, bo'g'cha hadyasida.
4. Asarda tog', tosh, qoya, dara, dasht, cho'l, bog', ko'shk, daryo, dengiz, to'fon, g'or kabi peyzaj tasvirlari mahorat bilan berilgan.
5. Ma'lumki, ba'zi shoir va adiblar asarlarida ruba'i maskun haqida gapirsa, Majlisiy dostonida yetti iqlimni tilga olgan.
6. Mirrix, Mushtariy, Zuhul, Zuhra yulduzlari bilan bog'liq tasvirlar bayoni ham ta'sirli chiqqan.
7. Majlisiy dostonida bog' yaratish, ko'shk qurish, kema yasash bilan bog'liq lavhalarda ma'lum ma'noda temuriylar va shayboniylar davri madaniy hayoti, bun-

yodkorlik ishlari, ixtirolariga ham ishora qilgan.

8. Ishq ahliga berilgan "...erning eridur!" qisqa ta'rifni dostonning kulminatsion nuqtasi deb baholash mumkin:

*Muhabbat bahri oshiqalar yeridur,
Anga kirgan toqi erning eridur!*

9. Yuz, o'n, 400 shahar, 400 kema, 40 kun, 7 iqlim, 12 va 3 jo'ra (do'st), 3 yil, 1 yil, 11 yil, 13 yil kabi sonlar muallifning mahorati sabab dostonning sujeti, qahramonlar qismatini yoritishga xizmat qilgan.

10. Zindonga tashlash, o'tin tashish, ot qashish singari jazo usullari asar qahramonlari ruhiyatini ochib bergan.

11. Sayfulmulukning himoya quroli bo'lgan tabar (bolta), tesha uning qo'rqmas bahodirlik fazilatini namoyon qilgan.

Xulosa o'rnida A.Ibrohimovning Majlisiy haqidagi quyidagi fikrlarini keltirishga qaror qildik: *"Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot asosida maydonga kelgan "Qissayi Sayfulmuluk" bu ikki adabiyotning o'zaro mustahkam aloqasini, biri ikkinchisini doimo boyita borganini ko'rsatgan. U keyingi asrlarda maydonga kelgan shunday xarakterdagi asarlarning yaratilishiga zamin tayyorladi. Shuning natijasida o'zbek adabiyoti tarixida "Tohir va Zuhra" (Sayyodiy), "Bahrom va Gulandom" (Sayqaliy) kabi qator asarlar maydonga keldi. Ana shu jihatdan qaraganda "Qissayi Sayfulmuluk"ning o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati yanada yaqqolroq ko'zga tashlanib turadi"* (O'zbek adabiyoti tarixi. 3-jild. Toshkent: Fan. 117-bet).

Burobiya RAJABOVA,
O'ZR FA O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti yetakchi
ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Mamlakatimizda "Boburnoma"ning kirill yozuvida ilk nashrini amalga oshirgan atoqli matnshunos olimlar Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev bo'ladilar. Bu nashr 1948-yildan boshlab to shu kungacha qilingan nashrlarga ma'lum ma'noda asos bo'lib kelmoqda (1960, 1965, 1980, 2002, 2024). 2024-yili "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan lotin yozuvida nashr qilindi. Porso Shamsiyev "Boburnoma"ga "Nashr haqida" nomli so'zboshi yozgan. Unda olim S.Mirzayev bilan amalga oshirgan nashr ishlari, o'z ijodiy laboratoriyasi xususida gapirgan. Bobur shaxsi, adabiy merosiga yuksak baho bergan. Yana so'zboshida zahmatkash olim "Boburnoma"ning turkolog N.Ilminskiy, ingliz oriyentalisti A.Beverij xonim, Anqara nashri va M.Salening ruschada qilgan to'liq tarjimasini ham ko'zdan kechirishganini aytgan. O'z zamonida tadqiqotchilarni memuarga qiziqitira olgan. Biz "Ma'rifat" muxlislariga Ustozning mazkur so'zboshisini ilindik.

Burobiya RAJABOVA

Nashr haqida

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida (1483–1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburning hozirgacha ilm xazinasigacha kelib qo'shilgan asarlari – uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi "Mubayyin" nomli she'riy risolasi, "Validiya" atalgan tasavvufga oid bir kitobchaning nazm bilan tarjimasini, Bobur ixtiro etgan va "Xat-ti Boburiy" nomi bilan mashhur bo'lgan alifbo jadvali hamda qo'lingizdagi "Boburnoma" asaridan iboratdir.

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiasini, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga olganligi, xil va uslubining go'zalligi bilan XVIII,

Bobur xazinasini

ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlagan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsa-da, uni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiya", "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo'lib ketgan.

Bu asarning mavjud to'liq matni 1857-yili turkolog N.Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr uslublarini ko'rsatgan ruscha so'zboshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N.Ilminskiyning zo'r faoliyat ko'rsatganini alohida qayd etish kerak.

Bu nashrdan keyin 1905-yili ingliz oriyentalistlaridan A.Beverij xonim "Boburnoma"ning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini(qo'lyozmaning ayni o'zini) sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq

matn bo'lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan xoli emasdir.

London nusxasining afzalligi shundaki, bunda A.Beverij nusxaning ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan, shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingliz tilida o'n betlik so'zboshisi ham bor. Lekin ko'rsatkichlarning transliteratsiyasiz arab

yozuvi bilan berilishi nomlarni to'g'ri o'qish masalasini qiyinlashtiradi.

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, 1948-1949-yillarda "Boburnoma"ning ikki qismdan iborat to'liq matni bosib tarqatilgan edi. Bu nashr yangi o'zbek alifbosida, kishi va geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lug'at, ba'zi bir qisqa izoh va tarjimalar bilan bosilgan edi.

Shundan keyin "Boburnoma"ning to'liq matni 1960-yili qayta nashrga tayyorlandi va nashr etildi. Ilgarigi nashri kabi bu nashrga ham yuqorida zikr etilgan London va Qozon bosma nusxalari asos qilib olindi. Shu ikkala nusxa qaytadan taqqoslanib, ikkisiga ham tanqidiy qaraldi. Birisini birisi to'ldirish yo'li bilan tuzilgan mazkur matnni anchagina mukammallashtirish desa bo'ladi. Nusxalarda ma'no jihatidan farq qiladigan so'zlar kelganda bundaylarning farq va variantlari bet ostida ko'rsatila borilgan. Shu jihatdan bu nashrning bet osti izohlari avvalgiga nisbatan anchagina ko'paygan edi.

Bu nashrni tayyorlash davomida

ayrim so'z va terminlar transkripsiyasini aniqlash masalalarida "Boburnoma"ning Anqara(Turkiya)da turkchaga qilingan tarjimasini va filologiya fanlari nomzodi M.Salening ruschaga qilgan to'liq tarjimasini ham ko'zdan kechira borilgan va shular bilan moslashtirishga urinilgan edi.

Kitob oxirida ilova qilingan ko'rsatkichlar qayta tuzatilgan va tarjimalar ham yangidan qarab chiqilgan. Asarning ilgarigi bosmasida ba'zi bir tushirib qoldirilgan joylari bu bosmada kiritilib, matnni mukammallashtirilgan edi.

"Boburnoma"ning biz tomondan tayyorlangan hozirgi nashrida ham, ilgarigi nashrlaridagi kabi, yuqoridagi asosiy va yordamchi manbalarga taqqoslab, bosmada yuz bergan va o'z tomonimizdan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va tuzatishga urinildi. Tarjima va izohlar ham qaytadan qarab chiqildi, izohlar birmuncha to'ldirildi.

Ammo ilgari ham aytganimizdek, qilingan shu ishlarga qaramasdan ham ishda birmuncha nuqsonlar mavjudligi aniq. Jumladan, ayrim so'zlar, ayniqsa, Afg'oniston va Hindistonga taalluqli bo'lgan jug'rofiy nomlar, kishi ismlari, o'simlik, hayvonot va boshqa xil atamalar transkripsiyasini batamom to'g'ri va aniq deb bo'lmaydi. Ish protsessida masalaning eng qiyin tomoni ham shu bo'ldi. Bulardan boshqa yana birmuncha matnologik kamchiliklar mavjud bo'lishi mumkin. "Boburnoma"ning puxta tayyorlangan tanqidiy matni maydonga chiqmaguncha va "Boburnoma"da qo'llangan O'rta Osiyo, Afg'oniston hamda Hindistonga oid barcha tarixiy nomlarning aniq transkripsiyasi ishlanmaguncha bu asarning aniq nashrlarida noaniqlik va nuqsonlar yuz berishi tabiiydir...

Porso SHAMSIYEV

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Rustam Jamshidning yelkasidan tutdi: – Biz bilan ketmaysizmi?

– Yo'q, – dedi xotirjam bir alfozda Jamshid, – hali ishlarim bor.

Rustam u bilan tanishganidan beri o'ylab yurgan savolni berdi: – To'g'risini ayting, kimsiz o'zi?

Jamshid unga qattiq tikildi:

– Hozircha sening xaloskoringman! Mana buni ol, yo'qotib qo'yma, kimga qachon berishni o'zing anglab yetasan, – dedi Rustamning qo'lga jimitday op-poq qog'oz parchasini tutqazib. So'ng:

– Kelib qolishmasdan jo'nanglar. Vaqt g'animat, aslo ikkilanmanglar. Vatanda siyosat o'zgargan. Sizlarga yordam qilishadi. Pistirmadan ehtiyot bo'linglar. Har bir bosadigan qadamlaringni o'ylab bosinglar. Xonobod daryosini yoqalash xayollaringga ham kelmasin. Kun botish tomonga, faqat Ko'kcha daryosini mo'ljallab yurasizlar. Daryoni topgandan keyin, uning oqimi bo'ylab yuringlar, Tojikiston chegarasiga olib chiqadi. Daryodan kamida bir chaqirim narida yuringlar. To'siq chiqsa, aylanib o'tishga harakat qilmanglar. Berkinib, qancha vaqt bo'lsa ham kutinglar, – dedi.

Shu vaqt, ularga yaqinroqdan bir-birini chaqirgan odam ovozi eshitildi.

– Aftidan “biznikilar”, – dedi Jamshid. – Jo'nanglar, boringlar tez.

Ular bir lahza ko'z urishtirib, unsiz xayrlashdi. Jamshid ovoz kelgan tomonni mo'ljallab, daraxtlar orasida g'oyib bo'ldi.

Qolgan yigitlardan biri: – Endi g'ayrat qil. Ortimizdan naq ajal quvib kelayapti. Yo qochib qutulamiz yoki bu tog'lardagi jondorlarga yem bo'lamiz. Vatanga yetguncha ortga qarama, – dedi Rustamga.

O'sha kuni Rustam qo'rquvning zo'ridan tog'ni qanday oshib o'tib ketganini bilmadi. Quyuq daraxtzorlar bag'rida yangragan o'q sadolari unga faqat tezroq yugurish uchun kuch-quvvat berdi. Har bir o'q ovozidan keyin xayolidan “Jamshidga tegmadimikan?”, degan gap o'tdi...

Tohardan Toshkent viloyatiga piyoda kelgan kishi bormi desa, Rustamni ko'rsatish mumkin. Uning vatanga safari naq ikki oyga cho'zildi. Negaki, yo'lda ehtiyot bo'lib, pistirmaga tushib qolmaslik uchun hushyor yurish kerak edi. Shu bois, Tojikistonga kirishganda kimdir qo'lga tushsa, qolganlar ham uning kasriga qolmasin, deb sheriklar ajrashishdi.

Rustam qishlog'iga tong saharda kirib keldi. Ota uyiga kirolmadi. Darvozani silab, unsiz yig'lab turaverdi. Iztirobga shunchalar g'arq bo'ldiki, ichkaridan eshitalayotgan otasining oyoq tovushini, uning darvozaga yaqinlashib kelayotganini ham anglamadi. Darvoza darchasidan chiqqan ota sahar g'ira-shirasida yig'lab turgan kishini ko'rib, cho'chib tushdi.

– Kimsan-ey, nima qilib turibsan bironing darvozasining oldida, – dedi keyin jahl bilan.

Rustam shundagina o'ziga kelib, otasiga yuzlandi:

– Otajon, – dedi-yu oyog'idan kuch ketdi, tizzalab qoldi.

Millionlab qadamlarni bosgan, tog'-u toshlarda, hech zog' yo'q dashtlarda bukilmagan, bag'riga tushganni tubiga tortuvchi asov daryolardan suzib o'tishda pand bermagan oyoq, Rustamni ota ro'parasida tiz cho'ktirdi.

Qarshisida turgan kishi o'g'li ekanligini anglagan ota bir lahza dong qotdi: – Rustamjon, o'g'lim, – dedi so'ngra.

Ular izillab yig'lagancha bir-birlariga talpindi.

– O'zimning qo'lim bilan gazandalarga topshirib qo'ygan ekanman-ku, bolam. Qayerlarga yo'qolib ketding, bolam. Men ahmoqni kechir, bolam. Endi qaytib ko'ramanmi-yo'qmi, deb kuyib ketdik, bolajonim. Onajoning har kuni, bugun o'ng qovog'im uchdi, Rustamjonim kelib qoladi, deb, ertalabdan kechgacha, ko'chada yo'l qarab o'tirardi, bolam, – deb bo'zladi ota.

Rustam dahshatga tushdi. Ko'zidan yoshi tortildi. Yig'ilganlarga qaradi:

– Hech qachon vatanga xiyonat qilmaganman, – dedi qat'iyat bilan.

Hamma unga tikilib qoldi. Kimningdir ko'zlarida achinish, boshqasini shubha zohir. Rustamning tizzalaridan yana kuch ketdi. Otasining oyoqlari ostiga shalvirab cho'kib, boshini egdi.

Otaning bir iztirobi ming bo'ldi:

– Bolajonim, sen nega xiyonatchi bo'larkansan. Menman o'sha xiyonatchi, men. Seni ularning qo'lga tutqazgan o'zimman-ku, bolam. Men hali tirikman, bunday bo'zlama. Kimga javob berish kerak bo'lsa, men javob beraman, – deb Rustamning boshini quchdi-yu hushini yo'qotib yiqildi.

G'ala-g'ovur bo'lib ketdi.

Otani ko'tarib uyga olib kirishdi. Kimdir tez yordam chaqirdi. Shifokor u

ADOQSIZ YO'L



Bomdod namozi uchun masjidga yo'l olgan qo'ni-qo'shnilar ham ularning atrofida jam bo'lishdi, biri nima bo'lganini anglab, quvonchdan kulib turgan bo'lsa, boshqasi Rustamni tanimay hayron edi.

Rustam otasining bo'zlashlarini sekin-sekin idrok qilib, ongi yorishdi-yu seskanib ketdi. Oyoqlariga kuch kirdi. O'zini qo'lga olib, o'rnidan turdi, otasining yelkalaridan ushlab o'ziga qarab so'radi:

– Onam qayerda?

Otasi ko'zlaridan oqayotgan shashqator yoshi bilan biroz unga tikilib turgach, boshini quyi egib baralla yig'ida davom etdi. Ammo javob qilmadi.

– Otaaa, – dedi dahshatga tushib, Rustam. – Meni qo'rqitmang... gapiring, onajonim qani? Ayting, ota, nima bo'ldi o'zi? Gapiring, otajon, gapiring...

Rustam otasining yelkalarini siltab boshlagach, qo'shnisi Xolmo'min aka ularni ajratdi.

– O'zingni qo'lga ol, Rustam, – dedi u kishi bosiq ovozd. – Onang kasalxonada, o'g'lim, uch kundan beri jonlantirish bo'limida, behush yotibdi.

– Behush? Nima qildi onamga? – deb yana otasiga yuzlandi Rustam.

– Bir yigit bilan uchastka inspektori kelgan edi, sen bedarak ketganingdan keyin jangarilarga qo'shib ketganingni, ikki oy avval u yoqda ham bedarak yo'qolganingni, uyga kelgan-kelmaganingni surishtirdi. Onang bechora shu gapdan so'ng gapirolmay qoldi. Kasalxonaga olib bordik, kecha tushdan keyin insult deyishdi. Yo'qolib qolganingdan beri, vatanga xiyonat qildi, degan gaplardan ich-etini yeb yurardi, bolam, – dedi otasi yig'lamsirab.

kishini o'ziga keltirib “O'ta kuchli hayajondan hushini yo'qotgan, xavotirga o'rin yo'q. Hammasi joyida”, degach yig'ilganlar yengil tortdi.

– O'g'lim, seni onang kutayapti, borishimiz kerak. Qarindoshlar ham o'sha yoqda, – dedi ota.

Ota-bola kasalxona hovlisiga kirib kelganda erta bo'lishiga qaramay odam ko'p edi. Kimdir hovlida chekib turar, kimdir suhbatlashar, ba'zi birovlar sayr qilib yurardi. Onaning taqdiridan xavotirlanib, tunni ham shu yerda o'tkazgan qarindoshlar anchagina ekan. Rustam bilan birma-bir quchoqlashib, yig'lab-engrab ko'risha ketishdi.

Nari-beri hol-ahvol so'rashuvdan so'ng amakisi otasini chetga tortdi.

– Kelinoyimni sun'iy nafas olish uskunasi ulashdi, aka, – dedi yig'lamsirab, ko'zlarini olib qochgancha. – Doktor sizni kirib chiqsin, dedi.

– Yo Ollo, – dedi ota, – ortimda qoldir, ortida qoldirma. Rustamni tezroq kiritaylik unda.

Hamshiralardan biri Rustamga oq xalat kiydirib, ortidan yurishni iltimos qildi. Yo'l-yo'lakay, baqir-chaqir qilmaslikni, keskin harakat, onasini quchoqlash, siltash mumkinmasligini, imkon qadar ohista kirib chiqishi lozimligini, har qanday ortiqcha shovqin yoki harakat yomon ta'sir qilishi mumkinligini uqtirdi.

Rustam uning gaplariga amal qilib, palataga ohista kirib keldi. Onasi maxsus uskunaga ulangan, deyarli nafas olmayotgandek yotar, yurak urishini

ko'rsatib turgan uskuna esa eringan-day ahyon-ahyon ovoz chiqarib turardi. Ko'zlaridan shashqator yosh oqayotgan bo'lsa ham Rustam o'zini qo'lga olib, onasini birpas kuzatdi. So'ng uning o'ng qo'lidan ohista tutdi.

– Onajon, – dedi ovozi qaltirab.

Onasining qo'lini siladi.

– Men Rustamman, – dedi, – men keldim, onajon...

Ona javob qilmadi. Ammo o'ng qo'lining bosh barmog'i Rustamning qo'lini siqqandek bo'ldi. Yumilib turgan o'ng ko'zidan bir tomchi yosh sizdi.

Rustam quvonib ketdi:

– Onajon, meni eshitayapsiz-a? – dedi quvonchli ovoz bilan.

Onaning bosh barmog'i uning qo'lini yana bir siqdi-yu yurak urishini ko'rsatib turgan uskunadan to'xtovsiz, chiyillagan ovoz chiqarib boshladi. Shoshib palataga kirgan hamshira eshikka qarab baqirdi:

– Ruksora, vrachni chaqiring. Tez chaqiring, Ruksora! Bemorning yuragi to'xtab qoldi. Ruksora, yuguring!..

Onasining o'tganiga uch kun bo'ldi. Rustam har tong onasi qabrining boshiga kelib tilovat qildi. Dadasi “salovat aytib turadi”, deb qo'lga tutqazgan archa niholini qabr yoniga ukasi bilan birga ekib qo'yishdi.

Rustam uch kun ichida qattiq cho'kib ketdi. Bo'lib o'tgan voqealarni o'ylab, “qaysi zamonda yashayapman. Boshimdan nimalar o'tmadi. Bunga kim sabachi o'zi?”, deb o'ylar. Onasidan ayrilganini aslo hazm qilolmas, ayniqsa, shahlo ko'zli singlisi Mukarramning jovdirab, unsiz yig'lashlari yurak-bag'rini ezib yuborayotgan edi.

O'tgan tunda bularning barchasiga o'zini sababchi, deb o'ylab, “yashashga haqqim yo'q”, degan xayolga bordi. Hamma uyquga ketgandan keyin og'ilxonaga kirdi. Sirtmoq yasadi. Sirtmoqni tugardi-yu hiqillab yig'lagancha, “onamning boshiga yetgan men maxluqning yashashga haqqim yo'q”, deb shivirlardi.

Oxur ustiga chiqib, bo'yniga sirtmoqni tashlagan mahal og'ilxonaning zimiston to'ridan onasining ovozi keldi:

– Qo'ling qonmi?

Rustam hayron bo'lib qorong'ulik qa'riga tikildi.

Savol takrorlandi:

– Qo'ling qonmi?

Rustamning vujudini qo'rquv qamradi.

– Ona, – dedi titrab-qaqshab, – onajon, sizmisiz?

– Qo'ling qonmi? – yana takrorlandi savol.

– Yo'q, – dedi Rustam dahshatdan muzlab, – yo'q.

– Qo'ling qon bo'lsa ahdingdan qaytma, – dedi ona ovozi.

– Aytayapman-ku, qon emas deb, ona, – deb baqirdi Rustam.

Shundan keyin jimlik cho'kdi. Butun vujudi qo'rquvdan tars yorilgulik holga kelgan Rustam arang sirtmoqni olib, oxurdan go'yo oqib tushdi.

– Ona, shu yerdamisiz, onajon javob bering, – dedi zimistonga qattiq tikilib.

Javob bo'lmadi. Ko'zlariga yorqin nur urilib, hushdan ajradi.

(Davomi keyingi sonda.)

Abdulhamid MUXTOROV

Taqriz

ABDULLANING KO'NGIL SIYRATI



Har bir ijodkor asari, agar ta'bir joiz bo'lsa, muallif ko'nglining suvratidir. Shunday fikrga kelishimga Abdulla Ayizovning yaqindagina nashr qilingan “Katta bo'lay, ko'rasiz” kitobi sababchi bo'ldi. “Adabiyot” nashriyotining tuhfası bo'lgan asar nomidan ham ayonki, bolalarga atalgan. Hikoyalar qahramonlarining bolalarga xos sodda va o'ta samimiyligi menga muallif xarakterini eslatdi. Yaqindan taniganim uchun unga hazilli-chinli qilib “Siz so'nggi mogikansiz” deyman. Tevarakatrofıdagi yaqinlarga munosabatining samimiyligi (u uchun begonaning o'zi yo'q), mehribon va soddaligi nainki xarakterida, hatto badiiy bitiklarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Ana shu quyma ruhni qo'limdagi to'plamni varaqlay turib yana bir karra his qildim. To'plamni o'qish jarayonida undagi qahramon va personajlarga avval qayerdadir duch kelib suhbatlashgandek his etasiz.



Mazkur kitob aynan bolalar ko'nglidagi kitob bo'lgan. Hajman va mazmunan ham boshdan oyoq bolalarbop. Hikoyalarning ixchamligi, voqealar asosan qahramonlar tilidan bayon etilishi uning o'qishligini yanada oshirgan. Ayniqsa, mavzularining rango-rangligi, betakrorligi kitobxonni beixtiyor o'ziga ipsiz bog'lab qo'yadi. To'plam “Kim Baxtiyor?” hikoyasi bilan ochiladi.

Muallima sinf jurnalini qo'lga olib, yo'qlamani boshlarkan, sinfga qarab “Kim Baxtiyor?” deya murojaat qiladi. Uni hayratlantirib “men”, deya koreys millatiga mansub bola o'rnidan turadi. Yozuvchi o'quvchi oldida jumboq yarata-di. O'ziga xos ijodiy topqirlik yo'lidan borib bu yerda ijodkor so'z o'yini orqali oddiy so'roq gap va ism-familiyaning o'xshashligidan foydalanadi. O'xshash qiyoslar orqali hikoyaga kitobxon diqqatini tortib, unda asarga qiziqishini yanada oshiradi. Yozuvchi do'stlik haqidagi qizil shiorlardan tamomila voz kechib o'ziga xos yo'l tutadi. Alohida tahsinga loyiq jihati, hikoyani o'qigan kishi yurtimizda millatlararo do'stlikning monolit birligini qalbida yanada teranroq his etadi. Ijodkor hamma biladigan gaplarni marjondek tizib o'quvchini zeriktirmaydi. Aksincha, hikoyani o'qish jarayonida do'stlik oddiygina ismlar ifodasida ham o'z qudratini ko'rsatishi mumkinligini amalda ko'rsatadi.

To'plamga nom qilib olingan “Katta bo'lay, ko'rasiz” hikoyasi ham betakrorligi bilan kishi diqqatini tortadi. Ma'lumki, aksariyat bolalar tortinchoq va boshqalar oldida imyanib o'z fikrini aytishda duduqlanib, o'zida jur'at topolmaydi. Mazkur hikoyada muallif ko'nglidagi orzularini qog'ozga tushirishga intilgan. U o'zbek bolalarining ham dadil bo'lishini istaydi. Ko'nglidagi botiniy og'riqli kechinma – qahramoni o'zbek bolasi timsolida ko'rishni istaydi va voqelikni yaratish jarayonida bunga to'liq erishadi. Mittigina bola o'zida jur'at topib, boks mashg'ulotlari o'tiladigan manzilni biror kishining ko'magisiz topib kirib keladi. Mitti bolaning samimiy gaplaridan ensasi qotgan murabbiy boshida sportchilarga xos biroz dag'allik bilan unga bepisand muomala qiladi. Biroq samimiy gaplaridagi dadillik, sa'y-harakatlaridagi o'z kelajagiga ishonch, botiniy iroda va jur'atiga tan beradi. Uning dadilligiga iqror bo'lib, qoyil qolganini shogirdlariga qarata “Bo'lajak chempion... Rostini aytayapman. Xo'sh, sizlarning birortangiz shu boladek paytingizda boks murabbiyiga to'g'ridan to'g'ri uchrashib, dilingizdagi gapni ayta olganmisizlar?” deya ularning havoyi qarashlariga nuqta qo'yadi. Ana shu iqror zahirida o'quvchi kelajak avlod taqdiriga befarq bo'lmaslik kerakligiga qandaydir undov va chaqiriq borligini

qalban his etadi. Darhaqiqat, xalqimiz bejiz “bola boshidan” demaydi. Ushbu hikoya esa ana shu purhikmat maqolning nihoyatda hayotiyiligiga bir ishora emasmi? To'g'ri, bu hikoya kimgadir to'qimadek tuyulib, unda shubha uyg'otishi mumkin. Biroq muallif orzusi har bir ko'ngildagi ezgu niyatligi ro'yirost. Shunday ekan, buni hech kim rad etolmaydi. Qolaversa, o'zbek yoshlari sportda, xususan, boksda erishayotgan yutuqlar dovrug'i bugun olamga doston.

